

## SAYYOHLAR TAJRIBASINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYANING ROLI

Axmatova Mohigul Ergash qizi

Buxoro davlat universiteti

### KEY WORDS

turizm xizmatlari,  
innovatsion faoliyat,  
turizmda mobil  
texnologiyalar, grab ilovasi.

### ABSTRACT

Sanoat va jamiyatni raqamlashtirish va ekologik transformatsiya qilish sharoitida texnologik innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari va ularning turizm sohasiga ta'sirini o'rganish tadqiqot mavzusiga aylanib bormoqda. Turizmni rivojlantrishda innovatsion texnologiyalar ta'siri, turizm sohasida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, ulardan samarali foydalanish yo'llari va o'zgarish dinamikasi ko'rib chiqilgan. Xalqaro reytinglardan foydalangan holda, sohani rivojlantirish uchun mobil texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari haqida fikrlar aytib o'tilgan.

### Kirish

Global turizm sektori o'sishda va diversifikatsiya qilishda davom etar ekan, gavjum bozorda raqobatbardosh bo'lib qolish uchun tashrif buyuruvchilar tajribasini oshirish muhimligi e'tirof etilmoqda. Turizm innovatsiyalar va texnologik yutuqlar tufayli doimiy ravishda rivojlanib borayotgan sanoatdir. So'nggi yillarda texnologiyaning sayyoohlari tajribasini oshirishdagi roli tobora ortib bormoqda. Sayyoqlik tizimida innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi orqali turar joyni bron qilish, transportni boshqarish va turistik obyektlarni mustaqil ravishda sayohat qilish imkoniyatini beradi. Raqamli platformalar, mobil ilovalar, kengaytirilgan reallik va boshqa texnologik vositalarning kuchayishi bilan destinatsiyalar va sayyoqlik korxonalarini sayohatchilar uchun immersiv va shaxsiy tajriba yaratishning innovatsion usullarini o'rganmoqda. Rivojlanayotgan tendentsiyalar va ilg'or tajribalarni ochib berish orqali biz turizmdan manfaatdor tomonlar, ilmiy doiralar va siyosatchilar o'rtaida yanada innovatsion, inkiyuziv va barqaror turizm ekotizimini rivojlantirish uchun muloqot va hamkorlikni ilhomlantirishni maqsad qilganmiz. Hozirgi vaqtida moddiy hayotning yaxshilanishi bilan odamlarning ma'naviy hayotga bo'lgan talablari tobora yuksalmoqda. O'yin-kulgining muhim usuli sifatida sayyoqlik faoliyati odamlarga dam

olishga va dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi, shuning uchun ular tobora ko'proq odamlar tomonidan ma'qullanadi. Yangi davrda turizmning yo'llari va tanlovlari tobora ko'payib bormoqda. 2023-yilda dunyo bo'ylab eng ko'p yuklab olingan sayohat ilovalarini umumiyluklab olishlar soni bo'yicha Google maps, Uber, Booking.com, Airbnb, Google Earth, Where is my train, inDrive, Auto,Navi va Fightradar24 kabi ilovalarni uchtarishimiz mumkin [1].

Turizm sohasida innovatsion texnologiyalarning muvaffaqiyatli integratsiyasi turli manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat organlari, turizm tashkilotlari, texnologiya provayderlari va mahalliy hamjamaliyatlarning hamkorligini talab qiladi. Buhalis va Lav ta'kidlanganidek axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasidagi yutuqlar jumladan, onlayn bron qilish platformalari, ijtimoiy media orqali maqsadli marketing va shaxsiy sayohat tavsiyalari bilan ajralib turadigan elektron turizmning paydo bo'lismiga yordam berdi. Bundan tashqari, mobil qurilmalarning ko'payishi sayyoohlari va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'rtaida real vaqt rejimida aloqa o'rnatish imkonini berdi, bu esa yanada qulaylik va foydalish imkoniyatini yaratdi.

Sayyoohlarni qabul qiluvchi davlat xizmat ko'rsatish sohasidagi ilg'or, ijobiy tendentsiyalarni amalga oshirmsandan turib jahon iqtisodiyotida o'zining munosib o'rmini egallay olmaydi. 2023-

yil turizm sohasining ko'plab yo'nalishlarida o'sish ko'rsatkichiga erishilganligini o'tgan yillarda pandemiya tufayli kamayib borgan sayyoohlarning tashriflarini qayta tiklanishi bilan tavsiflash ham mumkin. Buning natijasida jahon iqtisodiyoti ma'lum darajada rivojlanib, ba'zi mintaqalarda an'anaviy turizm xizmatlarini tashkil etish jarayonlarini ko'rish mumkin. Jumladan, Osiyo va Tinch okeani mintaqasida sayyoohlar tashriflarining pandemiya davridagi pasayishi ortidan kuchli o'sish darajasiga erishildi va hududda turizm talabi qayta shakllantirildi.

Turizmda transportni rivojlantirish bo'yicha har qanday dasturlarni amalga oshirish har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda zamonaviy yondashuv va usullarning barcha turlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Turizmda transportning roli muttasil ortib borishi natijasida turizmda transport infratuzilmasi nafaqat turistik resurslar mavjudligini ta'minlovchi vositaga, balki turistik resurs xususiyatlariha ham ega bo'ladi. Shu sababdan turizmda transport infratuzilmasini o'rganish va uni rivojlantirishning optimal usullarini va bu tizimni boshqarishning samarali yo'llarini izlashga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda [2].

Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik omillar bilan bir qatorda transport infratuzilmasining darjasasi va tashkil etilishi turizmni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qabul qilinadi. Dunyoning uchinchi eksport sektori sifatida qabul qilingan sayyoqlik sanoati ish o'rinalarini yaratish va butun dunyo xalqlarining turmush darajasini oshirish uchun muhim omildir.

Bugungi kunda foydalaniladigan mobil ilovalarning ommalashuvi 2000-yillarga to'g'ri keladi. Hamyonbop xalqaro transport, arzon mehmonxonalar va professional sayyoqlik agentliklari odamlarni sayohat jarayoniga jalb qilishga undaydi. Turistik ilovalar fenomeni zamonaviy sayohatchilar uchun juda ko'plab qulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Yo'nalishlarni topish, til bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish va qabul qiluvchi davlatning madaniyatini hurmat qilish turistik ilovalar tomonidan muvaffaqiyatlidir. Taqdim etilishi mumkin bo'lgan tashqi yordamchi sifatida qabul qilinishi mumkin.

**Xizmat innovatsiyasi** - bu doimiy ravishda o'zgarib turadigan mijozlar talablarini yaxshilash uchun taklif qilinadigan tadbirlarni o'z ichiga olgan raqobatdosh ustunlikka erishish uchun amalda qo'llaniladigan strategiya sifatida ta'riflanadi. AQSH transport va turizm sektori uchun smartfon ilovalarining evolutsiyasi, transport samaradorligi va tirbandlikni kamaytirishga yordam beruvchi turlari ko'rib chiqilgan, shuningdek, transport ilovalari va ularni sayohatchilarning xatti-harakatlariha o'zaro ta'siri va joriy muammolari o'rganilgan. Mobil ilovalar odamlarning sayohat tanloviga kuchli ta'sir ko'rsatib, bu ta'sirning aksariyati iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik mexanizmlari mavjud. Bu mexanizmlarni transport ilovalarida qo'llagandagi ta'sirlari quyidagilardan iborat:

- **Aqliy ta'sirlar:** Smartfon ilovalari, asosan, murakkab vaziyatlarni tushunish uchun muhim bo'lgan aqliy say-harakatlarni va aniq vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan qadamlarni kamaytirish orqali bir qator aqliy qiyinchiliklarni oldini oladi. Bu oddiy foydalanuvchi uchun ham, aqliy muammolari va nogironligi bo'lganlar uchun ham amal qiladi. Mobil qurilmalar foydalanuvchilarga bir zumda moliyaviy bozorlarni kuzatish, ob-havo prognozlari haqida ma'lumotga ega bo'lish va kerak bo'lganda GPS(Global Positioning System) yo'nalishlarini olish imkonini beradi. Ilovalarda jamoat transporti jadvali ma'lumotlariga kirish, marshrutni rejalashtirishni osonlashtirdi va transport xizmatlaridan foydalanishni soddashtirdi. Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarda aholining qarishi bilan birga, ko'rish, eshitish va aqliy qobiliyatlarining pasayishidan aziyat chekuvchi nogironlar va keksa odamlarning harakatchanlik ehtiyojlarini qondirish uchun transport ilovalari tobora muhim ahamiyat kasb etadi.

- **Dolzarb va idrok etilgan nazorat:** bunday holatda foydalanuvchi uchun transportning o'z vaqtida kelishi va jo'nashi, jamoat transportlarining jadval asosida aniq vaqtida harakatlanishi, ma'lumotlar o'z vaqtida yangilanib turishi sayohatni rejalashtirishda yuqori darajadagi nazoratni his qilishiga yordam beradi. Bu esa jamoat transportlaridan foydalanish ehtiyojini oshiradi.

- **Shaxsiy xavfsizlik:** Ko'pgina transport ilova foydalanuvchilari o'zlarini haqidagi ma'lumotlarini maxfiy saqlanganligi haqida

xavotirlar mavjud. Bu kabi shaxsiy ma'lumotlarni boshqalar bilan bo'lishmaslik ularning xavfsizligini ta'minlaydi, shu bulan birga ro'yxatdan o'tish uchun ortiqcha vaqt ni talab qilmaydi.

• **Ishonchlilik:** mobil ilova ishonchli bo'lishi uchun u odatda va'da qilingan natijaga erishishning minimal standartiga javob berishi kerak. Odatda, jamoat transportlari aniq vaqt tartibida ishlamay qolsa, ayblanuvchi tomon transport ilovasi bo'ladi. Umuman olganda, jamoat transportining jo'nashi va kelishlari, xizmat ko'rsatishning mavjudligi haqida noto'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lish foydalanuvchining ishonchiga putur yetkazadi va ularning muayyan ilovadan foydalanish ehtimolini kamaytiradi, shuningdek, haydovchi va yo'lovchi o'rtaida o'zaro ishonchni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari turizm sanoati uchun ulkan salohiyatga ega. Ular samaradorlik va xizmat sifatini oshirishi, shaxsiylashtirilgan xizmatni taqdim etishi, mijozlar bilan muloqotni yaxshilashi va yangi biznes imkoniyatlarini yaratadi. Malayziya va Indoneziya mamlakatlarida bir necha yillar davomida sayyoohlar tashrifi sezilarli darajada past bo'lganligining asosiy sabablari shaxsiy avtotransport vositalari sonining ko'pligi, sayyoqlik mavsumi davrida yo'llardagi tirbandlik darajasining yuqoriligi, jamoat transportining yetarli emasligi, transport tarmog'idagi noroziliklar, shahar va shahar atrofidagi hududlarning jadal rivojlanishi kabi jarayonlar sabab bo'lgan. Ushbu muammolar sayyoohlarni qiy nab kelayotgan edi.

Garvard Biznes Maktabi bitiruvchilar bo'lgan Singapurlik ishbilarmon Anthony Tan va Tan Hooi Ling lar tomonidan 2012-yilda Grab ride-hailing ilovasiga asos solindi. Ushbu yaratilgan ilova qisqa vaqt ichida Janubi-Sharqiy Osiyoning 8 ta (Kambodja, Indoneziya, Filippin, Myanma, Singapur, Vyetnam, Tailand va Malayziya) davlatining 339 ta shaharlari da keng ko'lama qo'llanildi. Hozirgi kunda ilova foydalanuvchilar tomonidan 185 million marta yuklab olingan - bu ko'rsatkich Janubi-Sharqiy Osiyo Millatlar Uyushmasi a'zosi bo'lgan 650 millionga yaqin aholining 30 foizidan kamrog'iga teng.

Grab mobil ilovasi Tailand mamlakatini ham qamrab olishi haqida yuqoridagi xaritadan bilishimiz mumkin. Ilovadan foydalanishni boshlagan davlatda sayohat qilayotgan sayyoohlar sonining ortib borayotganini ko'ramiz. Ilovani shakllantirish uchun hududga tashrif buyuruvchilar Xitoy, Malayziya, Singapur, Janubiy Koreya va Indoneziyaliklarni tashkil etmoqda. Eng ko'p keluvchilar Xitoyliklar bo'lganligi sababli ilovada xitoy tilidagi ma'lumotlarni kiritish va Tailanddagagi mavsum past bo'lganda xorijiy mijozlarni ko'paytirish uchun marketing vositalaridan foydalanish orqali Tailandga kelayotgan sayohatchilar sonini oshirishi mumkin.

Grab ilovasi foydalanuvchilarga oziq-ovqat yetkazib berish, oziq-ovqatga buyurtma berish, sug'urta polislarini to'lash va sotib olish kabi ko'plab kundalik ehtiyojlarini o'z qo'l telefonlari orqali qondirish imkonini beradi. 2025-yilga kelib, Grab mintaqadagi besh million kichik restoran va boshqa korxonalarga raqamli texnologiyalarni qo'liga kiritishda yordam berishni rejalashtirmoqda. Grab mintaqadagi ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ish olib borish orqali 20 ming o'quvchiga zamonaviy texnologiyalarni o'rgatishni ham maqsad qilgan.

Grab ilovasi xavfsizlikni yaxshilash, transportdan foydalanish imkoniyatini, shuningdek, yo'lovchilar va haydovchilarning farovonligini oshirishga ham qaratilgan. Bu mobil ilova nafaqat transport tizimini yangilash, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ko'pgina ishsizlar Grab ilovasi orqali haydovchilar, xodimlar, yetkazib berish xizmati ishtirokchilari va sotuvchilar sifatida o'z imkoniyatlarini olishadi. Grab xizmatlari kontaktsiz bo'lganligi sababli, bu koronavirus pandemiyasi paytida foydalanish uchun eng xavfsiz va eng yaxshi vosita bo'lib xizmat qilgan. Xizmatlarni mobil telefonlar orqali so'rash yoki qo'ng'iroq qilish va to'lovni mobil banking orqali amalga oshirish mumkin. Myanmada onlayn transport xizmatlari sohasi paydo bo'lgandan so'ng, transport tijorati yanada raqobatbardosh bo'ldi. Myanmadagi transport xizmatlari sanoatining ba'zi onlayn mobil ilovalari Grab, Oway Ride, FastGo va GetRide. Ular orasida Grab Myanmadagi eng mashhur onlayn dastur hisoblanadi, chunki u izchil, ishonchli, kirish oson va yo'lovchilar uchun xavfsizdir.

Grab ilovasining jamiyatdagi ijobji  
ta'sirlaridan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

- Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasining moliyaviy holatini yil davomida (2021-yil) 5.8 milliard AQSH dollariga yetkazgan;
- haydovchilarning 21 foizi, sotuvchilarning 31 foizi ish bilan ta'minlandi;
- Kichik oziq-ovqat ulgurji sotuvchilari savdosini ikki baravar oshirishga yordam bergan;
- 9 milliondan ortiq kichik tadbirkorlar Grab orqali iqtisodiy o'sishga erishdi;
- 2012-yildan 2021-yilga qadar Grab taxminan 1.7 million kichik biznesga birinchi bank hisoblarini ochishga yordam berdi.
- Mamlakatdagi an'anaviy naqd pulsiz operatsiyalardan farqli o'laroq, Grab ilovasida raqamli to'lovlarining moslashuvchanligi 9 barobarga oshirildi.

Har qanday yoshdagi odamlar Grabdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, Grabda mijozlar va xodimlar uchun juda ko'p ijtimoiy imtiyozlar yaratilgan. Myanmada ilovadan foydalanuvchilar oziq-ovqat xarid qilish, yetkazib berish xizmatlari, transport xizmatlari, shu jumladan avtomobilarni ijaraga olish va mehmonxonalarini bron qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Internetni Google Map qurilmalari bilan birlashtirib, mijozlarni kelish va ketish joylarini topish mumkin. Aniq xarita ma'lumotlari asosida velosipedchilar va avtotransport foydalanuvchilari manzilga tez yetib boruvchi marshrutni aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bu mobil ilova orqali turli xildagi chegirmalarning taqdim etilishi foydalanuvchilarni uzoq muddatga saqlab qolish uchun juda puxta tuzilgan marketing strategiyalaridan biri sifatida ko'rishimiz mumkin. Aholining transport xizmatiga bo'lgan ehtiyoji kundan-kunga ortiq borayotganligi sababli eng yaxshi variantlar orasidan xavfsiz, tezkor va

aniqligi kafolatlangan xizmatlarni Grab mobil ilova taqdim etib kelmoqda [4, 5].

Grab ilovasining muhim jihatni shundan iboratki, bu kabi sayyohlarga xizmat ko'rsatadigan ilovalar soni oshib borishiga qaramasdan, Grab ilovasidan foydalanuvchilar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Grab o'z xizmatlarini kengaytirish va yaxshilash uchun hukumatlar, korporatsiyalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi. Bularga quyidagilar kiradi:

**Hukumat bilan hamkorligi:** Grab ilovasi mamlakat transport infratuzilmasini yaxshilash, sayohatlarni tashkillashtirish ishlarini amalga oshiradi va smart shaharni rivojlantirishga hissa qo'shish uchun mahalliy hukumatlar bilan hamkorlik dasturlarini amalga oshiradi.

**Korporativ hamkorlik:** mehmonxonalar, aviakompaniyalar va elektron tijorat platformalari kabi turli kompaniyalar bilan hamkorlikni amalga oshirib, mijozlarni jalb qilish va uzoq muddat foydalanishi uchun integratsiyalashgan xizmatlar, dasturlar va turli reklama aksiyalarini taklif qiladi.

**Strategik xaridlar:** Grab o'zining bozordagi mavqeini mustahkamlash va yangi bozorlarga kirish uchun mahalliy kompaniyalarni sotib olish orqali faoliyatini kengaytirdi.

Norvegiyada sayyohlar tashrifi chog'ida barqaror transport xizmatlardan foydalanish bo'yicha "Norvegiyada sayohat qilishning 10 ajoyib usuli" dasturi ishlab chiqilgan. Sayyohlarga esda qolarli sayohatni tashkil qilishda jamoat transportidan foydalanishni taklif qilishadi. Shuningdek, elektromobillar yoki elektr velosipedlardan foydalanishlari uchun mamlakat bo'ylab o'n mingdan ortiq quvvatlash stansiyalari qurilgan va bir nechta mehmonxonalarining avtoturargohlarida quvvatlash joylari ajratilgan (1-jadval).

## 1-jadval

### Grab mobil ilovasidan foydalanuvchi mamlakatlar va unda taklif etiladigan xizmatlar tarkibi hamda ta'siri

Grab mobil ilovasiga	Ilovaning davlatlarga ta'siri	Ilovada taklif qilinadigan xizmat turlari
----------------------	-------------------------------	---

<b>kiruvchi davlatlar</b>			
<b>Kambodja Indoneziya Filippin Myanma Singapur Vyetnam Tailand Malayziya</b>	<b>Siyosiy</b>	Transportning inklyuziv transport, yashil va xavfsiz transport xizmatlari taklif etiladi. Shuningdek, brend avtomobillar xaridi va ijarasi ham yo'lga qo'yilgan.	<b>Transport xizmati:</b> Taksi buyurtma qilish, avtomobillar va mototsikllarni ijaraga olish va buyurtma berish. <b>Yetkazib berish xizmati:</b> Janubi-Sharqiy Osiyodagi restoranlar va oziq-ovqat do'konlari bilan foydalanuvchilarni bog'laydigan oziq-ovqatni yetkazib berish xizmati.
	<b>Iqtisodiy</b>	Ishsizlikni kamaytirish, avtomobil ijarasi, neft narxini tushishi, yo'l tirbandligining kamayishi natijasida sayyoohlар soni ortishi.	<b>Onlayn xarid xizmati:</b> GrabExpress bir necha daqiqa ichida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarni bir kun ichida yetkazib berish xizmatidir.
	<b>Ijtimoiy</b>	Janubi-Sharqiy Osiyoda urbanizatsiya harakatining kuchayishi, nogiron va qariyalar uchun imkoniyatlar yaratilishi.	<b>Moliyaviy xizmatlar:</b> turli to'lovlar, sug'urta, mikromoliyalashtirish xizmati, mehmonxonani bron qilish.
	<b>Texnologik</b>	5G qurilmalari bilan ishlash imkoniyatini kiritish, turli onlayn va oflays reklamalar joylash, internet tezligining oshib borishi.	
	<b>Ekologik</b>	Barqaror rivojlanish rejalarini ishlab chiqish, elektr transport vositalarini va zaryadlash stansiyalarini ko'paytirish.	

Bugungi kunda, eng arzon va sog'liq uchun foydali transport turlaridan biri bu velosiped bo'lib, Yevropaning 46 ta davlatini bog'laydigan yuqori sifatlari velosiped yo'llari tarmog'ini rivojlantirilmoqda. "Yevrovelo" nomi bilan tanilgan bu marshrut iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror sayohatlarni rag'batlantiradi va uzoq masofali velosiped sayyoohlari, shuningdek, kundalik sayohatlarni amalga oshiruvchi mahalliy aholi tomonidan foydalanishlari mumkin bo'ladi. Yevrovelo loyihasi bo'yicha 93000 kmni o'z ichiga olgan sayohat marshrutlar yaratilgan. Bu transport turidan foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida "Yevrovelo" nomli platforma ham joriy etilgan. Velosiped dunyosining poytaxti Niderlandiya hisoblanib, shahar transportining 40% ortig'ini velosipedlar tashkil etadi.

Yevropada velosipedan foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish uchun foydalanuvchi o'z mobil yoki kredit karta raqami orqali ro'yxatdan o'tishi, ma'lum miqdorda pul to'lashi bilan velosiped ijarasi bo'yicha avtomatik tizim yaratilgan. Niderlandiya hukumati tomonidan velosipedchilar uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'lib, ular maxsus yo'l belgilari va svetoforlar bilan jihozlangan 400 kilometrlik velosiped yo'laklari, yaxshi jihozlangan veloturargohlar va texnik xizmat ko'rsatish shahobchalaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, velosipeddan foydalanuvchilarga turli chegirmalar va vaucherga joriy etilishi yo'lovchi transportining innovatsion rivojlanishiga qaratilgan<sup>1</sup>.

Mustaqil tashrif buyuruvchi sayyoohlarning aksariyati sayohat davomida mahalliy aholiga nisbatan jamoat transport ma'lumotlarining

<sup>1</sup> <https://www.startupselfie.net/2021/08/25/parkis-smartest-space-saving-bicycle-storage-solution/>

yetishmasligidan aziyat chekishadi. Hudud haqida yetaricha ma'lumotga ega bo'lmaslik yoki til bilan bog'liq muammolar tufayli sayyoohlar turli transport tarmoqlari bo'yab harakatlanish uchun qo'shimcha yordamga muhtojlik sezishadi. Parijda tashkil etilgan "Metro orqali rasmiy ravishda Parijga tashrif buyuring" smartfon ilovasi bo'lib, sayyoohlarga Parij metrosidan va jamoat transporti tizimidan kengroq foydalanish imkonini beradigan xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Ilovadan foydalanish mutlaqo bepul bo'lib, o'n tilga tarjima qilingan ma'lumotlar bilan boyitilgan va ilovaning aksariyati funksiyalaridan oflayn rejimda ham qo'llay olasiz.

Ilova foydalanuvchilarga quyidagi imkonlar yaratilgan:

- Parij transport boshqarmasi tomonidan ishlab chiqarilgan har xil turdag'i chiptalar haqida bilib olish va har bir sayohat uchun eng mos chiptadan foydalanish;
- oflayn rejimda turistik diqqatga sazovor joylar, metro tizimi, temir yo'l vokzallari va aeroportlar haqidagi ma'lumotlarni olish;
- temir yo'l marshrutlarini tekshirish;
- metro bekatlaridan asosiy turistik joylarga bo'lgan marshrutlarni hisoblash;
- sayohat davomida foydalaniladigan iboralarni olish;
- diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumot beradi, ularning vizual tasvirlari, veb-saytlar va telefon raqamlari mavjud.

Turizm va mahalliy transport o'rtasidagi bog'liqlikni oshirish uchun maqsadli smart-kartalarni ishlab chiqish juda foydali bo'ladi. Yevropaning ko'plab yirik shaharlarida bu kabi kartalardan foydalanish keng tarqalgan. Amerika Qo'shma Shtatlari elektron transport chiptalaridan ko'pincha multimodal mahalliy transport va diqqatga sazovor joylarga kirishni birlashtirgan integratsiyalangan chiptalar tizimini taklif etadi. Ulardan ba'zi davlatlarda ekologik toza transport turlaridan foydalanishni targ'ib qilish, jamoat transportidan foydalanishni rag'batlantirish va tirbandlikni kamaytirish uchun ishlataladi.

Innovatsiyalar nafaqt transportning o'zida, balki aeroportlarda ham paydo bo'ladi. Misol uchun, chamadonni yo'qotishga qarshi tizim. Las-

Vegasdagagi "McCarran" aeroportlar chamaclarning yo'qolib qolmasligi uchun ularga "RFID" chipini biriktira boshlagan bir paytda, Bluesmart telefoningizdagi ilova yordamida boshqarilishi va kuzatilishi mumkin bo'lgan qo'l chamaclonini yaratdi.

Bugungi kunda, avtomobilarni ijaraga berish xizmati Yevropa mamlakatlarda juda ommalashib borayotgan transport xizmatlarini uchratishimiz mumkin. Ijara xizmatidagi hashamatli avtomobillar so'nggi o'n yil ichida Qo'shma Shtatlarda avtomobil sanoatining ajralmas qismiga aylandi, bu hashamatli ixlosmandlarga qimmatbaho mashina sotib olmasdan o'z orzularidagi haydashni boshdan kechirish imkoniyatini berdi<sup>2</sup>. Avtomobilarni ijaraga berish xizmati butun shahar bo'yab umumiyl transport vositalarini topishni, ularni GPS orqali avtomobil almashish xizmati ilovasi orqali aniqlashni, u bilan aylanib chiqishni va belgilangan to'xtash joylariga qo'yishni taklif etadi. Yevropa mamlakatlarda ushbu xizmatdan foydalanuvchilar soni 2020-yilda 15milliondan ortgan. Yevropa bo'yab faol bo'lgan avtomobil almashish provayderlari ro'yxati uzoq. Aksariyati faqat bitta mamlakatda ishlayotgan bo'lsa-da, ba'zi avtomobil almashish provayderlari bir nechta joyda foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu xizmatdan foydalanishda 20dan ortiq mobil ilovalardan foydalanuvchilar uchun yaratilgan [8].

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston transport xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan say-harakatlarga qaramasdan, haligacha ularning yetarli darajasiga erishilmagan. Ularni samarali rivojlantirish, salohiyatli imkoniyatlarining mavjudligi, rivojlangan mamlakatlarning ko'rsatgichlariga erishish bo'yicha tajribalarni umumlashtirish va o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar, xususan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar, xizmatlar sohasiga ajratilayotgan imtiyozlar tufayli turizm sohasida jadal o'sishga erishilmoqda. Bunga mamlakatimiz hududlarida sayyoohlarga xizmat ko'rsatadigan xususiy transport korxonalarining faoliyati yaqqol misol

<sup>2</sup> <https://getmancar.com/post/luxury-cars-in-american-carsharing>

bo'la oladi. Ularning soni va xizmatlarining takomillashib borishi soha rivojiga sezilarli darajada ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Tarixda Yevroсиyo hududlarini quruqlik yo'llari orqali Sharqiy Osiyo va O'rta Yer dengizini birlashtirgan buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan mamlakatimizga sayyoohlarni jalb qilish imkoniyatlari beqiyosdir. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalari rivojlanish davrida bu imkoniyatlar soni bir necha baravarga ortib boradi.

Xulosa qilib aytganda texnologiyani qo'llab-quvvatlaydigan tashrif buyuruvchilar tajribasining maqsadli raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rganish turistik yo'naliishlarning muvaffaqiyati uchun markaziy o'rinni tutadi, turistlarning qoniqishi, sodiqligi va qayta tashrif buyurish ehtimoliga ta'sir qiladi. Texnologiya takliflarni shaxsiylashtirish, diqqatga sazovor joylarni taqdim etish va uzuksiz sayohat tajribasini osonlashtirish orqali tashrif buyuruvchilar tajribasini yaxshilash potentsialiga ega. Turizm innovatsiyalari, texnologiya va tashrif buyuruvchilar tajribasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish turizm natijalarini optimallashtirishga intilayotgan destinatsiya menejerlari, siyosatchilar va biznes uchun juda muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalimovna J. H. TURIZMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 24. – C. 988-990.
2. Srinivasan S. et al. Tourism Innovation And The Role Of Technology In Enhancing Visitor Experiences //Educational Administration: Theory and Practice. – 2024. – T. 30. – №. 4. – C. 1506-1513.
3. Azizova S. "Tourism innovation can provide potentials economic growth in random selected economies" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020.-402-408b.
4. Axmatova, Mohigul. "TURIZM VA TRANSPORT XIZMATLARINING BIR-BIRI BILAN UZVIY BOG'LQLIGI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).
5. Szczerba R. Using Technology To Mitigate Cognitive Disabilities. – 2014.
6. Silva P. A., Holden K., Nii A. Smartphones, smart seniors, but not-so-smart apps: A heuristic evaluation of fitness apps //Foundations of Augmented Cognition. Advancing Human Performance and Decision-Making through Adaptive Systems: 8th International Conference, AC 2014, Held as Part of HCI International 2014, Heraklion, Crete, Greece, June 22-27, 2014. Proceedings 8. – Springer International Publishing, 2014. – C. 347-358.
7. Axmatova M.E. Turizmda transport xizmatlarini sifatini oshirishning jahon tajribasi va undan o'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari // International Interdisciplinary Scientific Conference "Digitalisation and Sustainability for Scientific Deployment : Economic, Social, and Medical Aspects" Received, December 2023. pp.3-6.
8. Dzhuraev A. T., Akhmatova M. E. Teshaeva MD Sovremennaya kharakteristika tipov ekonomiceskikh sistem [Modern characteristics of types of economic systems] //Molodoi uchenyi [Young scientist]. – 2015. – №. 12. – C. 409-413.
9. Axmatova M. TURIZM VA TRANSPORT XIZMATLARINING BIR-BIRI BILAN UZVIY BOG'LQLIGI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.